



EKSPORT, IMPORT OPERATSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH- ZAMON TALABI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17771510>

Misirov Asliddin

misirovasliddin@gmail.com

Buxgalteriya hisobi kafedrası asisstenti, SamISI

Suyunova Sevinch Lutfullayevna

Buxgalteriya hisobi va menejment fakulteti BH-324 guruh talabasi

sevinchsuyunova2206@gmail.com

ANOTATSIYA. *Mazkur maqolada eksport-import operatsiyalarining iqtisodiyot rivojlanishidagi o'rni, ularni samarali tashkil etishning ahamiyati va mavjud muammolar tahlil qilinadi. Xalqaro savdodagi logistika, bojxona jarayonlari va raqamlashtirish bilan bog'liq kamchiliklar ilmiy asosda ko'rib chiqilgan. Shuningdek, eksport salohiyatini oshirish, import jarayonlarini optimallashtirish hamda tashqi iqtisodiy faoliyatni takomillashtirish bo'yicha takliflar berilgan.*

KALIT SO'ZLAR: *Eksport, import, xalqaro savdo, tashqi iqtisodiy faoliyat, logistika, bojxona, raqamlashtirish, iqtisodiy integratsiya.*

ABSTRACT. *The article analyzes the role of export- import operations in economic development, the need for their improvement, and current challenges in international trade. It examines problems related to logistics, customs procedures, digitalization and present proposals aimed at enhancing export potential and optimizing import processes. The research findings contribute to strengthening the competitiveness of the national economy.*

KEYWORDS: *export, import, international trade, foreign economic activity, logistics, customs, digitalization, economic integration.*

АННОТАЦИЯ. *В данной статье анализируются роль экспорт-импортных операций в развитии экономики, необходимость их совершенствования и существующие проблемы международной торговли. Рассмотрены вопросы, связанные с логистикой, таможенными процедурами и цифровизацией. Также представлены предложения по повышению экспортного потенциала и оптимизации импортных процессов. Полученные результаты исследования способствуют укреплению конкурентоспособности национальной экономики.*

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *экспорт, импорт, международная торговля, внешнеэкономическая деятельность, логистика, таможня, цифровизация, экономическая интеграция.*



KIRISH

Globallashtirishning chuqurlashuvi, xalqaro bozordagi raqobatning kuchayishi, transport-logistika jarayonlarining tezkor o'zgarishi milliy iqtisodiyotlar oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda. Davlatlar iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash, milliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash va eksport salohiyatini oshirish maqsadida tashqi savdo operatsiyalarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratmoqda. O'zbekiston ham oxirgi yillarda eksport va import jarayonlarini soddalashtirish, tashqi iqtisodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash, bojxona tartib-taoillarini raqamlashtirish, logistika tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirmoqda. Ayniqsa, 2017-2024-yillar davomida tashqi savdo aylanmasi, eksport geografiyasi va mahsulot turlari sezilarli kengaydi. Shu sabab, eksport-import operatsiyalarini yanada takomillashtirish nafaqat zamon talabi, balki mamalakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishi uchun strategik zaruriyatdir.

ASOSIY QISM

Eksport-import operatsiyalari quyidagi iqtisodiy funksiyalarni bajaradi: davlat byudjetiga valyuta tushumlarini oshiradi, ichki ishlab chiqarishni rivojlantiradi, yangi texnologiyalar, uskunalar va bilimlarni mamlakatga keltiradi va xalqaro iqtisodiy integratsiyani ta'minlaydi. Masalan,

O'zbekistonda 2023-yilda eksport hajmi 19mlrd dollardan oshgan bo'lsa, import hajmi 30mlrd dollarni tashkil etdi. Bu ko'rsatkichlar tashqi savdoning iqtisodiyotdagi rolini yaqqol ko'rsatadi. Quyida keltirilgan to'siqlar eksport-import jarayonlarining samaradorligini pasaytiradi. Bojxona jarayonlarining murakkabligi: ortiqcha hujjatlar talabi, nazoratning ko'p bosqichli bo'lishi, bojxona rasmiylashtiruvda vaqtning ko'pligi.

Transport-logistika infratuzilmasining yetarli rivojlanmaganligi: yuk tashish tariflarining qimmatligi, multimodal logistika markazlarining yetishmasligi, temiryo'l va avtomobil yo'llarining yetarli darajada zamonaviy emasligi. Xalqaro standartlar bo'yicha sertifikatlashdagi qiyinchiliklar: ISO, HACCP va boshqa talablarning bajarilishi, laboratoriya tekshiruvlarining cheklanganligi, eksport mahsulotlari uchun sertifikat olish jarayoning uzoqligi. Tashqi bozorlarda marketing tadqiqotlarining sustligi: mahsulot uchun mos bozorni aniqlashda qiyinchiliklar, raqobatchilar tahlilining yetarli emasligi, reklama va brendingga kam mablag' ajratilishi. Kadrlar malakasining pastligi: tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha yetarli mutaxassislarning yo'qligi va incomterms, xalqaro kontraktlar, eksport hujjatlari bo'yicha bilimlar yetishmasligi. Eksport-import operatsiyalarini takomillashtirish yo'nalishlari, bojxona



jarayonlarini raqamlashtirish. O'zbekiston bojxona tizimida so'nggi yillarda "Yagona darcha" elektron platformasi joriy qilinmoqda. Bu orqali: hujjatlar taqdim etish avtomatlashtiriladi, ortiqcha ruxsatnomalar soni kamayadi, rasmiylashtirish muddati qisqaradi, korrupsiya xavfi kamayadi. Logistika infratuzilmasini rivojlantirish: quruqlikdagi xalqaro transit yo'laklarini kengaytirish, Toshkent, Samarqand, Buxoro logistika markazlarini modernizatsiya qilish, yuk tashish xizmatlarini raqamlashtirish (e-logistika). Misol uchun: 2023-yilda "Toshkent-Xitoy" multimodal yo'lagi orqali yetkazib berish tezligi 20%ga oshirildi. Eksportga mo'ljallangan ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash: eksportchilar uchun QQS qaytarilishi mexanizmi soddalashtirildi, "O'ztrade" agentligi orqali marketing ko'magi berilmoqda, eksport sug'urtasi tizimi takomillashtirilmoqda. Xalqaro standartlarga mos mahsulot ishlab chiqarish: mahalliy korxonalar ISO va HACCP standartlarini olishi uchun grantlar berish, maxsus sertifikatlash laboratoriyalarini ko'paytirish. Tashqi bozorlarda faol marketing yuritish: Turkiya, Xitoy, Yevropa, Koreya bozorlarida milliy stendlar tashkil qilish, eksport mahsulotlari dizaynini, qadoqlash sifatini oshirish, elektron savdo platformalarida (Amazon, Alibaba) faol ishtirok etish. Kadrlar malakasini oshirish: incoterms 2020 qoidalarini o'rgatish, xalqaro shartnomalar bo'yicha treninglar,

bojxona deklaranti, logist-mutaxassis, brokerlar tayyorlash.

ADABIYOTLAR SHARHI

A.Smit va D. Rikardoning "Mutlaq va nisbiy ustunliklar nazariyasi" eksportning mamlakat rivojlanishidagi asosiy omil ekanini ta'kidlaydi. Hozirgi tadqiqotchilar (Krugman, Obstfeld) esa tashqi savdoda miqyos iqtisodiyoti va texnologik ustunlikni asosiy factor sifatida ko'rsatadi. Jahon bankining "Logistics Performance Index(LPI)" hisobotida mamlakatlarning logistika samaradorligi milliy eksport ulushiga bevosita ta'sir qilishi qayd etiladi. WTO (Jahon savdo tashkiloti) materiallarida bojxona jarayonlarini raqamlashtirish savdoni 12-18% tezlashtirishi ko'rsatilgan. O'zbekistonlik olimlar X. Maxmudov, A. Alimov, B. Xudoyqulovning ishlanmalarida: tashqi iqtisodiy faoliyat mexanizmi, eksportni qo'llab-quvvatlash tizimi, importni optimallashtirish usullari o'rganilgan. 2017-2024-yillardagi Prezident Farmonlari va qarorlarida: "yagona darcha" tizimi, eksport qiluvchilarga subsidiyalar, bojxona tartib-taomillarini qisqartirish, logistika markazlari qurilishi haqida ko'rsatmalar berilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

So'nggi yillarda eksport hajmi oshgan bo'lsa-da, uning tarkibida xomashyo (paxtatolasi, gaz, rangli metallar) ulushi yuqori. Tayyor mahsulotlar ulushi hali past-35-40%. Import hajmining katta qismi uskunalar,



kiritilgan texnologiyalar, transport vositalari va kimyo mahsulotlaridan iborat. Bu iqtisodiy modernizatsiya uchun ijobiy, biroq tashqi ta'minotchilarga qattiq bog'liqlik mavjud. O'zbekistonda logistika xarajatlari mahsulot tannarxining 22-25% ini tashkil qiladi. Bu Turkiyada -12%, Xitoyda-8%. Xarajatlarning yuqoriligi eksport narxini raqobatbardosh qilmaydi. Bojxona jarayonlari sezilarli soddalashgan, ammo to'liq emas: "yagona darcha" tizimi joriy etildi, elektron deklaratsiyasi foizi 90%ga yetdi, lekin chegara punktlarida navbatlar va tekshiruvlar hali ko'p. Ko'plab korxonalar xorijiy bozorlarni o'rganmaydi, narx siyosatini bilmaydi, sifatli brending qilmaydi. Bu esa mahsulotni jahon bozorida tanitishga to'sqinlik qiladi. Ekologik, sanitariya, fitosanitariya laboratoriyalarining yetishmasligi eksport jarayonini sekinlashtiradi

Xulosa: O'tkazilgan tadqiqotlar, statistik tahlillar va mavjud adabiyotlar sharhi asosida shuni ta'kidlash mumkinki, eksport–import operatsiyalarini takomillashtirish bugungi globallashtirish sharoitida O'zbekiston iqtisodiy barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlashning eng muhim omillaridan biridir. Mamlakat tashqi savdo jarayonlarida so'nggi yillarda ijobiy o'zgarishlar ko'zga tashlanayotgan bo'lsada, ularni yanada takomillashtirish iqtisodiy islohotlarning ajralmas yo'nalishidir. Birinchidan, ekspertiza shuni ko'rsatadiki, eksport hajmlarining

yillik o'sishi iqtisodiyotda muvaffaqiyatli islohotlar olib borilayotganidan dalolat beradi, biroq eksport tarkibining xomashyo mahsulotlariga yuqori darajada bog'liq bo'lib qolayotgani jiddiy muammo sifatida mavjud. Tayyor mahsulotlar ulushining oshirilishi, qayta ishlash sanoatini modernizatsiya qilish hamda yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlarni yaratish O'zbekistonning jahon bozoridagi o'rnini mustahkamlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Import hajmlarining salmoqli qismi texnologik jihozlar, uskunalar va oraliq mahsulotlardan iborat bo'lib, bu iqtisodiy modernizatsiyaning davom etayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, importni oqilona diversifikatsiya qilish, ichki ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash orqali chetga haddan tashqari bog'liqlikni kamaytirish lozim. Import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish davlatning valyuta barqarorligini ta'minlashga ham xizmat qiladi. Bojxona tizimini raqamlashtirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar jarayonlarning shaffofligi va tezkorligini oshirmoqda. Elektron deklaratsiya, "yagona darcha" tizimi, onlayn monitoring kabi innovatsion mexanizmlar tashqi savdo ishtirokchilariga sezilarli qulayliklar yaratmoqda. Ammo ayrim chegara postlarida tekshiruvlarning ko'pligi va logistika jarayonlarining murakkabligi hali ham to'liq bartaraf etilgani yo'q. Shu sabab, bojxona infratuzilmasini modernizatsiya qilish jarayoni izchil davom ettirilishi zarur.



Logistika infratuzilmasining rivojlanishi eksportning raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. O'zbekistonning geografik joylashuvi tranzit salohiyatini oshirish uchun katta imkoniyat yaratadi, biroq logistika markazlarining yetishmasligi, yuqori yuk tashish narxlari, transport yo'laklarining cheklanganligi eksportchilar uchun qo'shimcha xarajatlarni keltirib chiqarmoqda. Shu bois, multimodal transport tizimini kengaytirish, yangi logistika markazlarini qurish va xalqaro transport koridorlari bilan integratsiyani kuchaytirish zarur. Xalqaro standartlarga mos sertifikatlash jarayonlarining takomillashmaganligi eksport jarayonlarini sekinlashtiradi. Jahon bozorlarida yuqori talab mavjud bo'lgan mahsulotlar uchun ISO, HACCP, GlobalGAP kabi sertifikatlar olish mexanizmlarini soddalashtirish, mamlakatda zamonaviy laboratoriyalar sonini oshirish va mahsulot xavfsizligiga oid standartlarni qo'llash eksport salohiyatini oshiradi. Korxonalarda eksport marketingi va xorijiy bozorlarni

o'rganishga e'tiborning sustligi jiddiy to'siqlarni keltirib chiqarmoqda. Raqobatchilar tahlilini yuritish, brendingni kuchaytirish, elektron savdo platformalarida faol ishtirok etish va tashqi bozorlar uchun mos reklama strategiyalarini ishlab chiqish korxonalarning eksport faoliyatini keskin yaxshilashi mumkin. Kadrlar salohiyati eksport-import operatsiyalarining samaradorligida muhim rol o'ynaydi. Incoterms qoidalari, xalqaro kontraktlar, logistika boshqaruvi va bojxona huquqi bo'yicha malakali mutaxassislar yetishmasligi ko'plab jarayonlarni sekinlashtirmoqda. Shu sabab, ta'lim tizimida tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashni kengaytirish zarur. Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, O'zbekistonning tashqi savdo tizimini takomillashtirish ko'p qirrali va murakkab jarayon bo'lib, davlat siyosati, biznes sektorining faolligi, logistika infratuzilmasi, xalqaro standartlar va kadrlar tayyorlash kabi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6009-son Farmoni (2020).
2. "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi Qonun (2019).
3. Jahon banki – Logistics Performance Index (2023).
4. WTO – Xalqaro savdo statistik sharhlari (2022–2024).
5. Maxmudov X., Alimov A. Tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari. – Toshkent, 2022.
6. Iqtisodiyot va Moliya vazirligi – "Tashqi savdo ko'rsatkichlari" (2020–2024).
7. O'zStat – Tashqi savdo statistik to'plami (2024).
8. "O'ztrade" agentligi yillik hisobotlari.